



## BARQARORLIK HISOBOTINING ASOSIY MEZONLARI VA XALQARO STANDARTLARI (GRI, IFRS S1/S2, TCFD)

**Yakubova Dिल्фуза**

*International School of Financial Technology and Science,*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*ORCID: 0009-0000-8718-4436*

*[dilya.yakubova89@gmail.com](mailto:dilya.yakubova89@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada barqarorlik hisobotining asosiy mezonlari hamda xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan standartlar — GRI (Global Reporting Initiative), IFRS S1 va IFRS S2, shuningdek TCFD (Task Force on Climate-related Financial Disclosures) tavsiyalari tahlil qilinadi. Barqarorlik hisobotining ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) ko'rsatkichlari orqali tashkilot faoliyatining uzoq muddatli barqarorligini baholashdagi o'rni yoritib beriladi. GRI standartlarining manfaatdor tomonlar ehtiyojlariga yo'naltirilganligi, IFRS S1 va S2 standartlarining moliyaviy ahamiyatga ega barqarorlik va iqlim bilan bog'liq risk va imkoniyatlarni ochib berishga qaratilganligi hamda TCFD tavsiyalarining iqlimiy xavflarni boshqarishdagi roli ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari barqarorlik hisobotini shakllantirishda xalqaro standartlarning ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** yashil buxgalteriya, barqaror rivojlanish, ekologik menejment, korporativ ijtimoiy masuliyat, yashil texnologiyalar.

## КЛЮЧЕВЫЕ КРИТЕРИИ ОТЧЕТНОСТИ В ОБЛАСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ (GRI, IFRS S1/S2, TCFD)

**Якубова Дильфуза**

*International School of Financial Technology and Science,*

*Ташкентский государственный экономический университет*

**Аннотация.** В данной статье анализируются основные критерии отчетности в области устойчивого развития, а также широко применяемые на международном уровне стандарты — GRI (Global Reporting Initiative), IFRS S1 и IFRS S2, а также рекомендации TCFD (Task Force on Climate-related Financial Disclosures). Рассматривается роль отчетности в области устойчивого развития в оценке долгосрочной устойчивости деятельности организаций на основе экологических, социальных и управленческих (ESG) показателей. Освещается ориентированность стандартов GRI на потребности заинтересованных сторон, направленность стандартов IFRS S1 и S2 на раскрытие финансово значимых рисков и возможностей в сфере устойчивого развития и изменения климата, а также роль рекомендаций TCFD в управлении климатическими рисками. Результаты исследования способствуют определению значимости международных стандартов при формировании отчетности в области устойчивого развития.

**Ключевые слова:** зеленый учет, устойчивое развитие, экологический менеджмент, корпоративная социальная ответственность, зеленые технологии.

## KEY CRITERIA OF SUSTAINABILITY REPORTING AND INTERNATIONAL STANDARDS (GRI, IFRS S1/S2, TCFD)

**Yakubova Dilfuza**

*International School of Financial Technology and Science,  
Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *This paper analyzes the key criteria of sustainability reporting and the internationally widely applied standards, including GRI (Global Reporting Initiative), IFRS S1 and IFRS S2, as well as the recommendations of the TCFD (Task Force on Climate-related Financial Disclosures). The role of sustainability reporting in assessing the long-term sustainability of organizational activities through environmental, social, and governance (ESG) indicators is highlighted. The stakeholder-oriented nature of the GRI standards, the focus of IFRS S1 and S2 standards on the disclosure of financially material sustainability- and climate-related risks and opportunities, and the role of TCFD recommendations in climate risk management are examined. The findings of the study contribute to identifying the importance of international standards in the development of sustainability reporting.*

**Keywords:** *green accounting, sustainable development, environmental management, corporate social responsibility, green technologies.*

### **Kirish.**

Bugungi globallashuv va iqlim o'zgarishi sharoitida kompaniyalar faoliyatining nafaqat moliyaviy natijalari, balki ularning atrof-muhit, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv (ESG) sohalaridagi ta'siri ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, barqarorlik hisobotlari manfaatdor tomonlar — investorlar, davlat organlari, hamkorlar va jamoatchilik uchun tashkilotlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini baholashda muhim axborot manbaiga aylanmoqda. Barqarorlik hisobotining asosiy mezonlari ekologik ta'sir (iqlim o'zgarishi, resurslardan foydalanish, chiqindilar), ijtimoiy omillar (mehnat sharoitlari, inson huquqlari, xavfsizlik) hamda boshqaruv tizimlari (shaffoflik, risklarni boshqarish, etik me'yorlar)ni qamrab oladi. Ushbu mezonlarning izchil, solishtiriladigan va ishonchli tarzda yoritilishi xalqaro standartlar orqali ta'minlanadi. Hozirgi kunda barqarorlik hisobotini tuzishda eng keng qo'llaniladigan xalqaro yondashuvlardan biri — **Global Reporting Initiative (GRI)** standartlari bo'lib, ular tashkilotlarning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'sirini manfaatdor tomonlar uchun keng qamrovli tarzda ochib berishga qaratilgan. Shu bilan birga, **IFRS S1 va IFRS S2** standartlari investorlar ehtiyojiga yo'naltirilgan bo'lib, barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy ahamiyatga ega risk va imkoniyatlarni aniqlash hamda oshkor etishga e'tibor qaratadi. Xususan, IFRS S2 iqlim bilan bog'liq risklar va imkoniyatlarni yoritishga ixtisoslashgan. Bundan tashqari, **TCFD (Task Force on Climate-related Financial Disclosures)** tavsiyalari kompaniyalarga iqlim o'zgarishining moliyaviy ta'sirini strategiya, risklarni boshqarish va ko'rsatkichlar orqali tizimli ravishda ochib berishga yordam beradi. Mazkur standart va tashabbuslarning uyg'unlashuvi barqarorlik hisobotlarining sifatini oshirish, xalqaro solishtiriluvchanlikni ta'minlash hamda kompaniyalarning uzoq muddatli qiymatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

O'zbekistonda korxonalarning ekologik va ijtimoiy mas'uliyatini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va amaliy loyihalar soni ko'paymoqda. Xususan A Review of Green Accounting in Emerging Economies – Shodiev Erkin Temirovich (2025) Ushbu tadqiqot 2020-2024 yillarda "green accounting" bo'yicha amalga oshirilgan sharh tadqiqotlarini umumlashtiradi. Nasiba Imamova, (2024) – IFRS S1 bo'yicha mahsus ilmiy maqola muallifi barqarorlik ma'lumotlarini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish bo'yicha takliflar bergan.

*Uglerod chiqindilarini buxgalteriya hisobiga integratsiya qilish: O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish vositasi sifatida*" (2025) Sherzod Halilov uglerod chiqindilarining moliyaviy hisobotga integratsiyasi, ESG reportingni takomillashtirish va yashil moliya bozoriga kirish imkoniyatlari haqida. Milliy amaliyot va xalqaro standartlar asosida tahlillar berilgan, Maqolada iqlim o'zgarishining milliy va global barqaror rivojlanishga salbiy ta'siri, uglerod emissiyalarini integratsiya qilish orqali ekologik mas'uliyat va investorlar ishonchini oshirish masalalari ko'tariladi.

*"Developing a Green Accounting Methodology in Uzbekistan: Lessons from the Malaysian Experience"* va *"Improvement of Green Accounting Methodology in Uzbekistan: Experience of Developed Countries"* (2024) Khalilov Sherzod Akhmatovich, O'zbekistonda yashil buxgalteriya metodologiyasini shakllantirish va xalqaro tajribalardan foydalanish bo'yicha ilmiy-tahliliy qarashlar taqdim etilgan.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot **aralash metodologik yondashuv (mixed-methods)** asosida olib boriladi. Bu yondashuv sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) usullarni uyg'unlashtirib, barqarorlik hisobotlari mezonlari va standartlarining nazariy asoslari hamda amaliy qo'llanilishini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot quyidagi asosiy yondashuvlarga tayangan: **Normativ yondashuv** – GRI, IFRS S1/S2 va TCFD standartlarining konseptual asoslarini tahlil qilish. **Taqqoshlovchi yondashuv (comparative analysis)** – standartlar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash. **Empirik yondashuv** – kompaniyalar barqarorlik hisobotlari asosida amaliy tahlil.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab industrializatsiyaning tezlashuvi, urbanizatsiya va global ishlab chiqarishning kengayishi atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kuchaytirdi. Neft to'kilishlari, atmosfera ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi, iqlim o'zgarishlari kabi muammolar nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka ham tahdid solmoqda. Ushbu tahdidlar fonida kompaniyalar o'zlarining ekologik zararlarini kamaytirish, yashil texnologiyalarni joriy etish va jamoatchilikka hisobot berish zarurligini his eta boshladilar. 1980 - yillardan boshlab fuqarolik jamiyati, ekologik nodavlat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari korxonalarning faqat foyda olishga qaratilgan faoliyatini tanqid ostiga oldi. Ochiqlik, mas'uliyat va ijtimoiy adolat talablariga javoban, korxonalar o'z faoliyati natijalari haqida kengroq ma'lumot taqdim etishga majbur bo'ldilar. Barqarorlik hisobotining (yoki ingliz tilida **Sustainability Reporting**) ilk bosqichi **1990-yillar boshlariga** to'g'ri keladi.<sup>1</sup> Barqarorlik hisobotining ilk bosqichida ayrim yirik kompaniyalar atrof-muhitga bo'lgan ta'sir haqida ixtiyoriy ravishda hisobotlar tayyorlashni boshlaganlar. Bu davrda hisobotlar asosan ekologik yo'nalishda bo'lib, ko'proq jamoatchilik bosimi va korxonaning imidjini yaxshilash maqsadida amalga oshirilgan. Ular yagona formatda emas, korxonaning o'z tashabbusi bilan tuzilgan bo'lib, ko'pincha ilmiy asos va metrikalardan yiroq edi. 1990-yillar oxirida barqarorlik tushunchasi kengayib, ijtimoiy va boshqaruv omillari ham inobatga olinadigan bo'ldi. Bu bosqichda **GRI (Global Reporting Initiative)** -Global hisobot tashabbusi 1997-yilda tashkil topdi va 2000-yilda birinchi barqarorlik hisobotlari bo'yicha ko'rsatmalar e'lon qilindi. **Global Reporting Initiative** — bu atrof-muhit, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik masalalarida tashkilotlar tomonidan tuziladigan hisobotlar uchun **xalqaro standartlar ishlab chiquvchi tashabbusdir**. GRI standartlari barqarorlik hisobotlarini tuzish bo'yicha ilk xalqaro yondashuv bo'lib, kompaniyalar o'rtasida ma'lumotlarning taqqoslanishini osonlashtirdi. Ushbu standartlar mulkchilik shaklidan qat'iy nazar har bir turdagi korxonalar uchun mo'ljallangan hususan davlat korxonalari, aksiyadorlik jamiyatlari va hususiy sektor korxonalari uchun ishlab

<sup>1</sup> <https://cfasociety.nl/en/publications/sustainability-reporting> Ans Kolk Full professor of sustainable management at the University of Amsterdam Business School.

chiqilgan standartlardir. Bu standartlardan **investorlar** hisobotdagi ma'lumotlardan tashkilot barqaror rivojlanish tamoyillarini strategiyasiga qanchalik integratsiya qilganini, moliyaviy xavflarni aniqlash va uzoq muddatli muvaffaqiyatini baholash uchun foydalanadilar.<sup>2</sup>

“GRI standartlarining tuzilishi va mazmuni”<sup>3</sup>.

### **Universal standartlar (GRI 1, 2, 3)**

GRI 1: Foundation. Bu qismda “hisobotni qanday tayyorlash kerak” degan asosiy qoidalar berilgan. Masalan, ma'lumotlar aniq, to'liq, ishonchli bo'lishi kerak.

GRI 2: General Disclosures. Bu yerda kompaniya haqida “pasport” singari umumiy ma'lumot beriladi — kim ular, nimani ishlab chiqaradi, nechta xodimi bor, boshqaruv tizimi qanday.

GRI 3: Material Topics. Ya'ni kompaniya o'z faoliyatida eng katta ta'sir ko'rsatayotgan sohalarni aniqlaydi: masalan, chiqindilar, energiya, mehnat sharoiti. Shular asosida hisobot tuziladi. **Masalan, GRI 11 – Neft va gaz sektori.**

neft kompaniyalari uchun — chiqindilar, gaz chiqishi, suv ifloslanishi muhim. Qishloq xo'jaligida esa — suvdan foydalanish, yer unumdorligi. Shuning uchun har soha o'ziga mos GRI qo'llanmasini tanlaydi.

An'anaviy moliyaviy hisobotlar korxonaning moliyaviy holatini aks ettirsa-da, XXI asrda bu yetarli emas. Barqarorlik (sustainability), iqlim o'zgarishi, ekologik xavf, ijtimoiy mas'uliyat kabi omillar korxonalarning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli: **2021-yil noyabrda IFRS Foundation tomonidan xalqaro miqyosda barqarorlik bo'yicha hisobot standartlarini ishlab chiqish** uchun yangi tuzilma – **ISSB (International Sustainability Standards Board)** tashkil etildi.<sup>4</sup> Barqarorlik (sustainability), ayniqsa **iqlim o'zgarishi**, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun moliyaviy jihatdan **muhim axborotga** aylangani sababli, **shaffof, solishtiriladigan va ishonchli standartlarga** ehtiyoj tug'ildi. Iqlim o'zgarishi kompaniya xarajatlari, operatsion faoliyati, yetkazib berish zanjiri, hatto moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir qilmoqda. Barqarorlik axboroti ko'pincha moliyaviy hisobotdan **ajratilgan** tarzda taqdim etilar edi. ISSB orqali bu standartlar **IFRS Foundation** tomonidan yaratilgani tufayli, bu moliyaviy hisobot standartlari bilan **muvofig** va **integratsiyalashgan** bo'ladi. Bu yondashuvni ko'plab davlatlar qo'llab-quvvatladi, xususan Yevropa Ittifoqi, Kanada, Avstraliya va boshqa yirik bozorlarda. ISSB tomonidan **barcha davlatlar va bozorlarda ishlaydigan yagona standart** yaratildi. Bular **IFRS S1** va **IFRS S2** — bu sohadagi global yondashuvga asos bo'ldi.

**S1 hisoboti** — bu **IFRS Foundation** (Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari jamg'armasi) tomonidan 2023-yilda qabul qilingan **barqarorlik bo'yicha xalqaro hisobot standartidir**. **IFRS S1 – General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information** (yoki: “Barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy axborotni oshkor etishning umumiy talablari”). S1 standarti tashkilotlardan **barqarorlikka ta'sir qiluvchi barcha muhim omillar** haqida ma'lumot berishni talab qiladi. S1 — kompaniya “bizning barqarorlik omillarimiz moliyaviy natijalarga qanday ta'sir qiladi?” degan savolga javob beradi. IFRS S1 – korxonalar uchun barqarorlik (sustainability) bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni oshkor etishning umumiy talablarini belgilovchi standartdir. Ushbu standart bevosita **moliyaviy hisobotlar tizimi, buxgalteriya prinsiplari va ichki hisob jarayonlari** bilan uzviy bog'liq. IFRS S1 talablari bo'yicha beriladigan barqarorlik axboroti: **moliyaviy hisobot to'plamining kengaytirilgan elementi** hisoblanadi ya'ni korxona faqat moliyaviy natijalarni emas, balki **moliyaviy natijalarga ta'sir qiluvchi barqarorlik omillarini** ham hisobot qiladi. Bu axborot **IFRS bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobot bilan mos bo'lishi** kerak. S1 bo'yicha oshkor qilingan ma'lumotlar (risklar, imkoniyatlar, ko'rsatkichlar) buxgalteriya hisobotidagi raqamlar bilan **uzviy bog'liq** bo'lishi shart. Masalan: Uglerod emissiyasi bo'yicha investitsiya → asosiy

<sup>2</sup> <https://www.globalreporting.org/about-gri/vision-mission-and-history>.

<sup>3</sup> <https://global.craft.co/blog/global-reporting-initiative-gri-standard>.

<sup>4</sup> ISSB rasmiy sahifasi: <https://www.ifrs.org/groups/international-sustainability-standards-board>.

vositalar qiymatiga ta'sir qiladi, iqlim xavfi sabab aktivlar qadrsizlanishi → IFRS IAS 36 bilan bog'liq, energiya samaradorligi uchun xarajatlar → IFRS bo'yicha xarajat sifatida tan olinadi.

IFRS S1 korxonadan **aniq, ishonchli, nazorat qilinadigan ma'lumotlar** talab qiladi. Bu esa korxonani: buxgalteriya axborot tizimlarini kengaytirishga, iqlim va barqarorlikka oid ma'lumotlarni integratsiya qilishga, ichki audit va nazorat tizimlarini kuchaytirishga majbur qiladi. Shu sababli S1 **buxgalteriya axborot tizimining sifatini oshiradi**. S1 standarti **to'rtta asosiy elementdan** iborat IFRS S1 hisobotida ko'rsatilishi lozim bo'lgan asosiy "kontent maydonlari" quyidagilardir.

**Strategy (Strategiya).** Barqarorlikka oid xavf va imkoniyatlar tashkilot biznes modeliga, qiymat yaratish va saqlash jarayoniga, kelgusidagi istiqbolga qanday ta'sir qiladi — shuningdek, tashkilot bu xavf/imkoniyatlarga qanday yondashadi, strategik rejalari qanday ekanligi.

**Governance (Boshqaruv).** Tashkilot barqarorlikka oid xavf-imkoniyatlarni nazorat qilish, boshqarish va qaror qabul qilish tizimini ochiqlashi kerak: kim nazorat qiladi, boshqaruv organlari qanday rol o'ynaydi, qanday siyosatlar qo'llaniladi.

**Risk Management (Xavflarni boshqarish jarayoni).** Tashkilot xavf va imkoniyatlarni qanday aniqlaydi, baholaydi, ustuvor qiladi, nazorat qiladi — ushbu jarayonlar qanday jinoyat bilan integratsiyalashgan.

**Metrics and Targets (Ko'rsatkichlar va maqsadlar).** Tashkilot barqarorlikka oid ko'rsatkichlarni (metriks), maqsadlarni (targets) va ularning amalga oshishi bo'yicha progressni ochiqlashi kerak. Bu raqamli ma'lumotlar, trendlar va tashkilotning maqsadga erishish holati haqida ma'lumot beradi.

**S1** — bu kompaniya faoliyatining **barqarorlik omillari bilan moliyaviy natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadigan standart**.

**Moliyaviy axborotni kengaytiradi** – faqat foyda yoki aktivlar emas, balki barqarorlik omillari ham hisobga olinadi. **Investorlar uchun xavf va imkoniyatlarni yoritadi** – masalan, iqlim o'zgarishi yoki energiya narxining o'zgarishi kompaniya moliyasiga qanday ta'sir qiladi. **Barqarorlikni boshqaruv qarorlariga kiritadi** – S1 rahbariyatni ESG ko'rsatkichlarini strategiyaga integratsiya qilishga undaydi. **Moliyaviy hisobotlar bilan birlashtiriladi** – ya'ni S1 hisobot **IFRS moliyaviy hisobotlari bilan birgalikda** e'lon qilinadi. Ushbu hisobotning hisobot davri moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda tuzilishi kerak va izohlar bilan birga taqdim etilishi lozim. IFRS S1 – General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information- IFRS S1 – Barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy axborotni oshkor etish bo'yicha umumiy talablar. Korxonaning barqarorlik bilan bog'liq risk va imkoniyatlari moliyaviy natijalariga, pul oqimlariga, kapitalga, va qiymat yaratish salohiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash va bu haqda manfaatdor tomonlarga ma'lumot berishdan iborat.

**IFRS S2 – Climate-related Disclosures** - Iqlimga oid oshkor etiladigan ma'lumotlar standarti. Korxonalarning iqlim o'zgarishi bilan bog'liq risk va imkoniyatlari qanday moliyaviy ta'sir ko'rsatishini aniqlab, bu haqdagi axborotni manfaatdor tomonlarga (ayniqsa investorlar) ochiq, aniq va taqqoslanadigan shaklda taqdim etish. Bu hisobot korxonalarning iqlim o'zgarishiga nisbatan strategik, moliyaviy va operatsion yondashuvlarini tizimli shaklda ochiqlashga qaratilgan global hisobot standartidir. U investorlar, regulyatorlar va manfaatdor tomonlar uchun moliyaviy jihatdan muhim bo'lgan iqlim risklarini baholashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

*O'zbekiston sharoitida IFRS S2 standartining joriy etilishi zarurati*

O'zbekiston iqtisodiyotida barqarorlik masalalari so'nggi yillarda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish, atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyani chuqurlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu jarayonda *IFRS S2 – "Climate-related Disclosures"* standartining joriy etilishi korxonalar uchun nafaqat hisobot talablarini bajarish vositasi, balki iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishning muhim mexanizmi sifatida ahamiyat

kasb etadi. *Iqlim xavflari O'zbekiston uchun dolzarb masala.* O'zbekiston Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishidan eng ko'p zarar ko'rayotgan hududlardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki: haroratning o'sishi tezlashmoqda, suv tanqisligi iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlariga ta'sir ko'rsatmoqda, ekstremal ob-havo hodisalari (qurg'oqchilik, chang bo'ronlari) kuchaymoqda. Bu holat sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika, transport sektorlarida *moliyaviy risklarning oshishiga* olib kelmoqda. IFRS S2 korxonalaridan ushbu xavflarni aniqlash, baholash va hisobot qilishni talab qiladi. Demak, standart iqtisodiyot tarmoqlarini iqlim xavflariga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. *Yashil energetika va sanoat transformatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi* yani O'zbekistonda quyosh va shamol energetikasi, energiya tejash, chiqindi emissiyalarini kamaytirish bo'yicha milliy strategiyalar qabul qilingan. Yashil loyihalar ulushi yildan-yilga o'smoqda. IFRS S2 korxonalaridan quyidagilarni talab qiladi: issiqxona gazlari emissiyalarini (Scope 1,2,3) o'lchash, iqlim strategiyalarini ochiqlash, dekarbonizatsiya rejalari bo'yicha ma'lumot taqdim etish. Bu talablar mamlakatning *2030 yilgacha bo'lgan yashil iqtisodiyot strategiyasi* va *2050 yilgacha karbon neytrallik maqsadlari* bilan bevosita uyg'unlashadi. *Korporativ boshqaruvni modernizatsiya qiladi* yani O'zbekiston korxonalarida risklarni boshqarish va strategik rejalashtirish tizimlari yetarli darajada rivojlanmagan. IFRS S2 talablari orqali: korxonalar risklarni aniqlash va baholashni tizimlashtiradi, boshqaruv organlari (kuzatuv kengashi, audit qo'mitasi) mas'uliyati oshadi, shaffoflik va axborot sifati yaxshilanadi. Bu nafaqat xalqaro standartlarga mos keladi, balki mahalliy korxonalarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

### Xulosa va takliflar.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, barqarorlik hisobotlari korxonaning uzoq muddatli qiymatini oshirishda muhim strategik vosita hisoblanadi. GRI standartlari keng qamrovli va ijtimoiy mas'uliyatni aks ettirsa, IFRS S1/S2 va TCFD investorlar uchun muhim bo'lgan moliyaviy risk va imkoniyatlarni yoritadi.

Amaliyotda:

- GRI — umumiy va batafsil barqarorlik hisoboti uchun,
- IFRS S1/S2 — moliyaviy bozorlar va investorlar uchun,
- TCFD — iqlim risklarini chuqur tahlil qilish uchun samarali hisoblanadi.

Shu sababli, zamonaviy kompaniyalar bir nechta standartlarni integratsiyalashgan holda qo'llashga intilmoqda. Bu esa shaffoflikni oshiradi, ishonchni kuchaytiradi va barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. An'anaviy moliyaviy hisobotlar (IAS va IFRS) korxonaning moliyaviy holatini aks ettirsa, yangi standartlar — **IFRS S1 (barqarorlik axboroti uchun umumiy talablar)** va **IFRS S2 (iqlimga oid axborotlar)** — korxonaning ESG (Environmental, Social, Governance) omillar orqali yuzaga keladigan risk va imkoniyatlarini moliyaviy axborotlar bilan **birlashtirishga** xizmat qiladi. **IFRS S1 va S2 — moliyaviy hisob standartlari emas, balki ularni to'ldiruvchi, ularning kontekstini kengaytiruvchi barqarorlik (sustainability) standartlaridir.** IFRS S1 va S2 standartlari — bu an'anaviy IAS/IFRS moliyaviy hisobot standartlarini ESG va iqlim xavflari orqali **kengaytiruvchi** yondashuv bo'lib, korxonaning uzoq muddatli barqarorlik darajasini moliyaviy mezonlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa moliyaviy hisobotlarni nafaqat statistik hujjat, balki strategik qarorlar asosi sifatida shakllantirish imkonini beradi.

**Barqarorlik hisobotlari bo'yicha yagona milliy yo'riqnoma ishlab chiqish.** GRI'ning keng qamrovli mezonlari IFRS S1/S2 ning moliyaviy ahamiyatga yo'naltirilgan yondashuvi bilan uyg'unlashtirilishi lozim. TCFD tavsiyalari iqlimga oid majburiy ochiqqlanishlar uchun asos sifatida qabul qilinishi tavsiya etiladi. **Bosqichma-bosqich majburiy joriy etish mexanizmi.** Yirik va ommaviy kompaniyalar uchun IFRS S1/S2 majburiy, O'rta kompaniyalar uchun soddalashtirilgan GRI asosidagi hisobot modeli tavsiya etiladi.

**Adabiyotlar / Лумепамыпа / Reference:**

Halilov, S., (2025) Uglerod chiqindilarini buhgalteriya hisobiga integratsiya qilish: O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish vositasi sifatida. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 3(5), pp.17–27. doi:10.5281/zenodo.15654999.

Imamova Nasiba (2024) Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil IFRS S1: BARQARORLIK BILAN BOG'LIQ AXBOROTLARNING MOLIYAVIY HISOBOTLARDA AKS ETTIRILISHI.

Khalilov Sherzod Akhmatovich (2024) DEVELOPING A GREEN ACCOUNTING METHODOLOGY IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM THE MALAYSIAN EXPERIENCE // <https://pedagoglar.org/02/article>.

Qaror (2019) IFRS: 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil Iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori.

Shodiev, E.T. & Makhkamboev, K.A., 2025. A Review of Green Accounting in Emerging Economies. *American Journal of Business Management, Economics and Banking*, 35, pp.82–88.